



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

## **O'ZBEKISTONNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNING AHAMIYATI**

Aysachev Abdulfotix Abdulfaiizovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti Mutaxassisik ijtimoiy-gumanitar  
va aniq fanlar kafedrasи i.f.f.d,(Phd)dotsent.

Aminova Farangiz Rustamovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti "Bank ishi va audit"  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish jarayonida statistik ma'lumotlarning o'rni va ahmiyati keng va atroficha yoritilgan. Statistika fani iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning miqdoriy hamda sifat jihatlarini o'rganishda eng muhim vosita sifatida talqin etilib, u iqtisodiy tahlil, davlat dasturlarini rejalashtirish hamda uzoq muddatli prognozlash jarayonlarida asosiy manba bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan. Ayniqsa, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi va tarkibi, inflyatsiya jarayonlari, ishsizlik darajasi, tashqi savdo balansi hamda aholi turmush darajasi kabi ko'rsatkichlarni muntazam ravishda statistik kuzatuvarlar asosida baholashning dolzarbligi ochib berilgan. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy islohotlar davrida statistikaning xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanishi, elektron hisobot tizimlari va raqamli texnologiyalar joriy etilishi mamlakat iqtisodiy siyosatini samarali yuritishda muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot davomida statistikaning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan bo'lib, ularning O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'siri ilmiy asosda yoritilgan..

**Kalit so'zlar:** Statistika, iqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, ishsizlik, tashqi savdo, iqtisodiy rivojlanish, tahlil, prognoz, davlat statistika tizimi, raqamli iqtisodiyot.



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

## **Аннотация**

В данной статье всесторонне рассматривается роль и значение статистических данных в процессе экономического развития Узбекистана. Статистика определяется как важнейший инструмент изучения количественных и качественных аспектов экономических явлений и процессов. Обоснована необходимость использования статистической информации при проведении экономического анализа, разработке государственных программ, стратегическом планировании и долгосрочном прогнозировании. Особое внимание уделено значению таких макроэкономических показателей, как валовой внутренний продукт (ВВП), уровень инфляции, показатели безработицы, внешнеторговый баланс, а также уровень жизни населения, которые регулярно оцениваются на основе статистических наблюдений. Подчёркивается, что в условиях современных экономических реформ развитие статистической системы в соответствии с международными стандартами, внедрение электронных отчётных систем и цифровых технологий являются ключевыми факторами эффективного ведения экономической политики. В исследовании подробно раскрываются теоретические и практические аспекты статистики и их прямое влияние на устойчивое экономическое развитие Узбекистан и экономического развития.

**Ключевые слова:** Статистика, экономика, валовой внутренний продукт (ВВП), инфляция, безработица, внешняя торговля, экономическое развитие, анализ, прогнозирование, государственная статистическая система, цифровая экономика.

## **Annotation**

This article provides a comprehensive analysis of the role and importance of statistical data in the economic development of Uzbekistan. Statistics are defined as a crucial tool for studying both the quantitative and qualitative aspects of economic phenomena and processes. The necessity of using statistical information in economic analysis, the development of state programs, strategic planning, and long-term forecasting is substantiated. Particular attention is given to the significance of key



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

macroeconomic indicators such as Gross Domestic Product (GDP), inflation rate, unemployment level, foreign trade balance, and living standards of the population, all of which are regularly assessed through statistical observations. It is emphasized that in the context of ongoing economic reforms, the development of the national statistical system in accordance with international standards, as well as the introduction of electronic reporting systems and digital technologies, play a vital role in ensuring the effectiveness of economic policy. The study highlights both the theoretical and practical aspects of statistics and their direct impact on the sustainable economic development of Uzbekistan.

**Keywords:** Statistics, economy, Gross Domestic Product (GDP), inflation, unemployment, foreign trade, economic development, analysis, forecasting, national statistical system, digital economy..

## Kirish

Har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan ishonchli va aniq ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimiga bog‘liqdir. Chunki iqtisodiyotni samarali tashkil etish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va aholining turmush darajasini oshirish uchun avvalo mavjud holatni to‘liq tahlil qilish talab etiladi. Bu jarayonda statistik ma’lumotlar eng asosiy manba sifatida maydonga chiqadi. Statistika fani iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning miqdoriy tomonlarini sifat jihatlari bilan birgalikda o‘rganib, ularni umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar shaklida ifodalaydi. Statistika nafaqat ma’lumot yig‘ish, balki ularni qayta ishlash, tahlil qilish va ular asosida ilmiy xulosalar chiqarish bilan ham shug‘ullanadi. Shu boisdan ham u davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat yuritish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, xalq farovonligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini kengaytirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonlarning samaradorligini aniqlashda yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari, tashqi savdo balansi kabi statistik ma’lumotlarga tayaniladi. Aynan mana shu ko‘rsatkichlar orqali iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi va



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

kelajakdagi strategiyalar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, statistik ma'lumotlarning iqtisodiy rivojlanishda tutgan o'rni beqiyosdir. U nafaqat mavjud holatni ko'rsatib beradi, balki kelajakdagi prognozlarni tuzishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, talabalik davridan boshlab statistik bilimlarni puxta egallash, uni iqtisodiyotdagi amaliyot bilan bog'lash juda zarurdir.

## **Asosiy qism**

Statistika iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda eng muhim fanlardan biri hisoblanadi. U orqali jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar aniq raqamlar orqali ifodalanadi. Statistika hodisalarning miqdoriy jihatini o'rganish bilan birga ularning sifat tomonlarini ham hisobga oladi. Masalan, ishlab chiqarish hajmining o'sishi nafaqat sonlarda, balki uning tarkibida qanday mahsulotlar yetishtirilayotganini ham ko'rsatadi. Shu sababli statistika iqtisodiyotda to'g'ri xulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Mustaqillikka erishgach, O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarishda ishonchli statistik tizimni yaratish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mamlakatning asosiy ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Statistik kuzatuvlar xalqaro metodologiyalar asosida olib borilishi natijasida iqtisodiy ko'rsatkichlar Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa tashkilotlar bilan solishtiriladigan darajaga yetdi. Bu esa mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining eng muhim makroko'rsatkichlari muntazam o'rganiladi:[1]

1. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – mamlakat iqtisodiy qudratini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Statistik hisobotlarga ko'ra, O'zbekiston YAIM hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Bu esa sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

2. Inflyatsiya – aholining xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi omil. Davlat statistika qo'mitasi iste'mol narxlari indeksini hisoblab, inflyatsiya darajasini aniqlaydi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy barqarorlikni baholashda muhim rol o'ynaydi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

3. Ishsizlik – mehnat bozorining holatini ko‘rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri. Statistik kuzatuvlar natijasida yoshlar bandligi, ayollar bandligi va hududlar kesimida ishsizlik darajasi aniqlanadi.
4. Tashqi savdo balansi – mamlakatning eksport va import ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Statistik tahlillar natijasida qaysi mahsulotlarga talab yuqori yoki qaysi tarmoqlar importga bog‘liq ekani ko‘rinib chiqadi.

## O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2019–2024[2]

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Ishsizlik (%)	Tashqi savdo balansi (mlrd \$)	O‘rtacha oylik ish haqi (ming so‘m)
2019	5.6	14.1	9.0	-6.5	1 900
2020	1.6	11.1	10.5	-10.-13	2 300
2021	8.0	10-10.8	9.5	-12.-15	2 800
2022	6.0	11.4	9.0-9.7	-13.7	3 722
2023	6.3	9.96	4-10	-17.3	4 857
2024	6.5	8-11	4-6	-18	5 357

So‘nggi yillarda mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayoni boshlandi. Bu statistika tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Davlat statistika qo‘mitasining “E-statistika” portalı orqali korxonalar va tashkilotlar o‘z hisobotlarini elektron shaklda topshirmoqda. Bu esa ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishslash va tahlil qilish imkonini yaratmoqda. Raqamli statistikaning rivojlanishi, o‘z navbatida, iqtisodiy qarorlar qabul qilishning samaradorligini oshirmoqda.

## Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida statistik ma’lumotlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki har qanday iqtisodiy qaror, dastur yoki islohot avvalo mavjud holatni to‘g‘ri tahlil qilishga tayanadi. Statistika fani aynan mana shu jarayonda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. U orqali iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi muntazam kuzatilib, ular ilmiy asosda umumlashtiriladi. Statistikaning vazifasi faqatgina raqamlarni yig‘ish emas, balki ularni chuqur tahlil qilish, iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash va



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

amaliyotda qo‘llashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, YaIM, inflyatsiya, ishsizlik va tashqi savdo kabi ko‘rsatkichlarning doimiy kuzatib borilishi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida statistikaning yangi imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Elektron tizimlar va zamonaviy dasturlar yordamida statistik ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonlari tezlashmoqda, ularning aniqligi ortmoqda. Bu esa iqtisodiy tahlillarni yanada ishonchli qiladi. Xulosa qilib aytganda, statistik ma’lumotlarsiz na iqtisodiy rivojlanish, na istiqboldagi prognozlarni ishlab chiqish mumkin emas. Shu boisdan ham statistika fani nafaqat iqtisodchilar, balki jamiyatning barcha sohalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti uchun statistik tizimni yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash zarurdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodiyev H., Habibullayev I. Statistika. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari – <https://stat.uz>
3. Karimov A. Iqtisodiy tahlil va prognozlash asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
4. Айсачев Абдулфотих Абдулфаизович. (2024). ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РАЗРЕЗЕ ТЕРРИТОРИИ РЕГИОНА. Web of Discoveries: Журнал анализа и изобретений, 2 (6), 119–127. Получено с <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/1618>
5. Айсачев, А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. Экономика и инновационные технологии, (4), 197–208. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11938](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938)
6. AA Aysachev, M Xonboboyeva. QISHLOQ XO’JALIGI MAXSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> October, 2025

SAMARADORLIKKA      ERISHISHNING      BA'ZI      MASALALARI.  
(2024). International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 72-77. <https://econfseries.com/index.php/5/article/view/77>